



QISHLOQ XO'JALIGI EKINLARI AYRIM ZARARKUNANDALARINI BIOLOGIYASINI O'RGANISH

Narзуллаева Н. Н.

ЎзМУ Биология факултетети

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7149156>

ARTICLE INFO

Received: 30th September 2022

Accepted: 03rd October 2022

Online: 05th October 2022

KEY WORDS

Ular orasida Qizil kitobga kiritilganlari ham bor. Masalan, *Charidea delphini* L., *Catocala fraxini* L [1,6].

Qishloq xo'jaligi ekinlari zararkunandalari orasida tunlamlar-Noctuidae oilasi asosiy o'rinni egalaydi. Ularga qarshi turli chora tadbirlar ko'rilishiga qaramay tunlamlar ayrim yillari qishloq xo'jalik ekinlariga kata zarar yetkazadi. Lekin shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki hamma tunlamlar ham zararkunanda emas. Ular orasida Qizil kitobga kiritilganlari ham bor. Masalan, *Charidea delphini* L., *Catocala fraxini* L [1,6].

Tunlamlar oilasiga kiruvchi hasharotlar har xil iqlim sharoitlarida yashashga moslashgan va ularning hammasi fitofag hisoblanadi, ya'ni o'simliklarning bargi, ildizi, poyasi va mevasi bilan oziqlanadi. Tabiiyki, ular yashash sharoitiga qarab, tashqi tuzilishi, biologic va ekologik xossalari bilan bir-biridan keskin farq qiladi.

Barcha tunlamlar oilasi asosan ikki ekologik guruhga bo'linadi. Bu o'simliklarning tuproqdagi qismi, ya'ni ildizlari bilan oziqlanuvchi turlar guruhi va

ABSTRACT

Qishloq xo'jaligi ekinlari zararkunandalari orasida tunlamlar-Noctuidae oilasi asosiy o'rinni egalaydi. Ularga qarshi turli chora tadbirlar ko'rilishiga qaramay tunlamlar ayrim yillari qishloq xo'jalik ekinlariga kata zarar yetkazadi. Lekin shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki hamma tunlamlar ham zararkunanda emas. Ular orasida Qizil kitobga kiritilganlari ham bor. Masalan, Charidea delphini L., Catocala fraxini L [1,6].

tuproq yuzasidagi qismlari bilan oziqlanuvchi turlar guruhi. Tunlam kapalak deb atalishiga sabab, bu kapalaklar asosan qorong'u tusha boshlaganidan to tong otguncha, ya'ni asosan kechqurun va tunda aktiv hayot kechiradi [2,4].

Qator qishloq xo'jaligi ekinlarining zararkunandalari bo'lgan g'oz'a tunlami-Helocoverpa armigera Hbn. Tunlamining biologic va ekologik xususiyatlarini o'rganilib, O'zMU Botanika bog'I sharoitida bu tunlam turlarining nechta avlodda rivojlanishi hamda avlodlarning har bitta bosqichi (tuxum, qurt, imago) qancha davom etishi o'rganildi.

G'oz'a tunlami-Helocoverpa armigera Hbn. tunlamlar-Noctuidae oilasining Melicleptrinae kenja oilasiga mansubdir. Bizning kuzatuvchilarimizga asosan kapalagining kattaligi qanotlarini yozganda 35-40 mm. Oldingi qanotlari sarg'ish kulrang tusda bo'lib, ba'zan qizg'ish qo'ng'ir yoki pushti, yoxud ko'kish rangda tovlanib turadi. Oldingi qanotlarida



qoramtir rangli yopiq naqsh bor, oldingi qanotlarining uchlaridan salgina ichkariroqda unchalik ko'zga tashlanib turmaydigan belbog' va qanotining o'rtasida ikkita dog' bor. Bu dog'lardan biri to'q gul rangli buyrak ko'rinishida, ikkinchisi kichikroq, kulrang tusda, dumaloq shaklda va uning markazi qoramtir rangli bo'ladi. Orqa qanotlarining rangli oldingilariga nisbatan ochroq, ularning oxirgi tomonidagi uchdan bir qismi qoramtirroq bo'ladi. Keyingi qanotlarining o'rtasida bitta qoramtir nishona bor.

G'o'za tunlamining tuxumi g'umbak ko'rinishida, qirrali, qirralar tuxumning uchiga borib bir nuqtada tutashadi. Yangi qo'yilgan tuxumlar rangi oqimtir sarg'ish tusda bo'ladi.

Voyaga yetgan g'o'za tunlami qurtining uzunligi 40 mm. gacha bo'ladi. Tanasi och yashil, ko'kish sariq rangdan tortib qoramtir rangacha bo'ladi. Nafas yo'li bo'ylab ancha ochiq rangli chiziq, orqasi bo'ylab to'q qo'ng'ir rangli to'lqinsimon ingichka chiziq o'tadi. Tanasidagi bo'rtma-sugalchalar ustida siyrak tukchalar borligi aniq ko'rinib turadi, bu tukchalar ko'pincha qoramtir rangli bo'ladi. Tanasining birinchi segmenti ustida marmarsimon naqshli xitin bilan qoplangan, silliq tuksiz joyi bor. Ayrim yoshdagi qurtlar bosh kossasining kata-kichikligi bilan bir-biridan farq qiladi.

Masalan, birinchi yoshdagi qurtning bosh kossasining eni 0,25 mm. dan 0,30 mm. gacha, ikkinchi yoshdagi qurtniki-0,42 dan 0,55mm. gacha, uchinchi yoshdagi qurtniki 0,67 mm. dan 0,75 mm. gacha, to'rtinchi yoshdagi qurtniki 1 mm. dan 1,5 mm. gacha, beshinchi yoshdagi qurtniki 1,70 mm. dan 2.23 mm. gacha, oxirgi

oltinchi yoshdagi qurtniki 2,35 mm. dan 2,5 mm. gacha bo'ladi[4,6].

G'o'za tunlami qurtlari kuzda qaysi o'simliklarda oziqlangan bo'lsa, uning voyaga yetgan qurtlari ham o'sha o'simliklar yaqinidagi 10-15 sm. Chuqurlikda bo'ladi.

G'o'za tunlami kapalaklari tuxumlarini o'simlik poyalari va shoxlari uchidagi yosh barglarga, ko'pincha ularning ustki tomonlariga, ba'zan o'simliklarning hosil organlariga bitta-bittadan sohib qo'yadi. G'o'za tunlamining qurtlari g'uj-g'uj bo'lib joylashganliklari sababli, ba'zan bir-birini yeb qo'yadi (kannibalizm). Har bir kapalak o'z umrida 400-600 ta, o'rta hisobda esa 556 ta tuxum qo'yadi. Ba'zi urg'ochi kapalaklar o'simliklardan oladigan nektarining miqdoriga va sifatiga, hamda ob-havo sharoitlariga qarab 3000 tacha qo'ya oladi.

G'o'za tunlamining qurtlari hammaxo'r bo'lishiga qaramay, kapalaklar tuxumlarini oksalat va chumoli kislotalari ajratadigan sertuk o'simliklarga qo'yishni yaxshi ko'radi.

G'o'za tunlamining qurti 15-20 xil qishloq xo'jalik ekinlarida doimo uchrab jiddiy zarar keltiradi, bunday o'simliklar qatoriga gulxayridoshlardan g'o'za, kanop, gulxayri; ituzumdoshlardan pomidor, tamaki, qalampir, baqlajon, bangidevona; dukkaldoshlardan no'xat, mosh, soya, g'alladoshlardan-makkajo'xori va oq jo'xori kiradi.

Biologik xususiyatlari. Bizning kuzatuvlarimizga asosan O'zMU Botanika bog'I sharoitida uchta to'liq avlodda rivojlanadi va to'rtinchi avlodining voyaga yetgan qurt bosqichida qishlaydi. G'o'za tunlamining to'la rivojlanib bo'lishi asosan haroratga bog'liqdir. O'rtacha oylik harorat +200 bo'lganida qurtning rivojlanishi 43-



44 kunda, harorat +300 bo'lganida esa 30 kunda tugallanadi.

Birinchi avlodining kapalaklari aprel oyining uchunchi o'n kunliklaridan may oyining ikkinchi o'n kunligi oxirigacha 25-30 kun uchadi. Tuxumi 3-4 kun, qurti 20-25 kun, g'umbagi 10-15 kungacha rivojlanadi. Birinchi avlodi 50-55 kunda to'liq rivojlanishi mumkin.

Ikkinchi avlodining kapalagi iyun oyining ikkinchi o'n kunligidan iyul oyining birinchi o'n kunligigacha uchadi. Tuxumi 2-3, kun qurti 30-32 kun, g'umbagi 7-10 kunda rivojlanadi.

Uchinchi avlodining kapalaklari avgust oyining boshidan oxirigacha uchadi.

Tuxumi 7-10 kun, qurti 25-30 kun, g'umbagi 15-20 kunda rivojlanadi.

To'rtinchi avlodining kapalaklari sentyabr oyining uchunchi o'n kunliklari boshidan oktyabr oyining ikkinchi o'n kunliklari oxirigacha uchadi. Tuxum 10-15 kun, qurti 20 kungacha yashab 4-5-yoshda, noyabr oyining boshlarida tuproqda qishlaydi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, g'o'za tunlami O'zMU botanika bog'i sharoitida uchta to'liq avlodda rivojlanadi va to'rtinchi avlodining qurt bosqichida qishlaydi.

References:

1. Алимухамедов С.Н. Ходжаев Л.Т. Вредители хлопчатники и меры борьбы с ними.- Ташкент, Фан, 1988.-195 стр.
2. Муминов Б.А. Пищевая предпочтительность некоторых растений гусеницами хлопковой совки. Вопросы биологии, экологии и регуляции численности животных в условиях антропогенного воздействия. Сб. науч. Трудов.- Ташкент, 1989. –С.82-87.
3. Поспелов С.М. Совки как вредители сельскохозяйственных культур.-Москва. 1989ю-112 стр.
4. Рахимов М.Ш. Совки (сем. Noctuidae) антропогенных ландшафтов Хорезмского оазиса (фауна, биология, экология). Автореф. дисс. канд. биол. наук.- Ташкент, 1997.-21 стр.
5. Хамраев А.Ш. Совки-вредители нута и меры борьбы с ними в условия Юго-запада Узбекистана. Автореф.дисс.канд.с/х.наук.-Ташкент, 1967.-19с.
6. Шек Г.Х. Совки-вредители полей.-Алма-Ата, 1975.-184стр.